

ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARINING FALSAFIY TAHLILI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15715653>

Shukurxo'jayev Nizomiddin Zuhriddin o'g'li
Aalfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti magistranti
Ilmiy rahbar: Muhammedov Asror Asadovich
Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti decani

Annotatsiya: Ushbu maqola Abdulla Avloniy tomonidan yozilgan “Turkiy Guliston yohut axloq” asarining falsafiy tahliliga bag‘ishlangan. Asarda axloqiy qadriyatlar, ma’rifatparvarlik, milliy o‘zlik, ijtimoiy mas’uliyat vaadolat singari tushunchalar keng yoritilgan. Avloniy o‘z asarida insonni faqat jismoniy jihatdan emas, balki ma’naviy jihatdan ham yuksaltirish, millatni ma’rifat nuri orqali rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Maqolada asarning maqsadi, mazmuni, axloqiy asoslari, shaxsiy fazilatlar, jamiyatdagi axloqiy munosabatlar va milliy o‘zlikni anglash masalalari keng yoritilib, Avloniyning falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Ushbu tahlil orqali Avloniyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari va ularning zamonaviy jamiyatdagi dolzarbligi ochib berilgan

Kalit so‘zlar: Axloq, xulq, jadidchilik, tarbiya, darslik, ma’rifatchilik, jamiyat, millat.

Аннотация: Статья посвящена философскому анализу произведения «Турецкий Гюлистан или Нравственность» Абдуллы Авлони. Работа широко охватывает такие понятия, как моральные ценности, просвещение, национальная идентичность, социальная ответственность и справедливость. В своем творчестве Авлони подчеркивает необходимость возвышения человека не только физически, но и духовно, а также развития нации посредством света просвещения. В статье подробно рассматриваются цель, содержание, нравственные основы, личностные качества, моральные отношения в обществе, понимание национальной идентичности произведения, анализируются философские взгляды Авлони. Этот анализ раскрывает идеи Просвещения Авлони и их актуальность в современном обществе.

Ключевые слова: Этика, поведение, джадидизм, образование, учебник, просвещение, общество, нация.

Abstract: This article is devoted to the philosophical analysis of the work “Turkish Gulistan or Ethics” written by Abdulla Avloni. The work widely covers such concepts as moral values, enlightenment, national identity, social responsibility and justice. In his work, Avloni emphasizes the need to elevate a person not only physically, but also spiritually, to develop the nation through the light of enlightenment. The article extensively covers the purpose, content, moral foundations, personal qualities, moral relations in society and the understanding

of national identity of the work, and analyzes Avloni's philosophical views. This analysis reveals Avloni's ideas of enlightenment and their relevance in modern society.

Keywords: Ethics, morality, modernity, education, textbook, enlightenment, society, nation.

KIRISH

Abdulla Avloniy (1878-1934) O‘zbekistonning atoqli ma’rifatparvar shoiri, pedagogi va jamoat arbobi bo‘lib, uning ijodida xalq ma’rifati, milliy o‘zlik va tarbiya masalalari alohida o‘rin tutadi. Avloniy o‘z asarlarida millatni jaholatdan chiqarish, ma’rifat nuriga yo‘naltirish maqsadini ko‘zlagan. Shulardan biri — “Turkiy Guliston yohut axloq” asari bo‘lib, unda axloqiy qadriyatlar, tarbiya, ma’naviyat va insonning ichki dunyosi haqida chuqur falsafiy fikrlar bayon etilgan. Ushbu maqolada asarning falsafiy tahlili amalga oshirilib, Avloniyning axloqiy qarashlari yoritiladi.

TAHLIL

Avloniyning “Turkiy Guliston yoki Axloq” asari didaktik va ma’rifatparvar uslubda yozilgan. U asarida o‘quvchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalashga chaqiradi va bu borada juda ko‘plab hikoya, maqola va darslardan foydalanadi. Asarda keltirilgan misollar va darslar orqali Avloniy axloqiy qadriyatlarni faqat so‘zlar bilan emas, balki hayotiy tajribalar orqali ham o‘rgatadi. U asarida nafaqat axloqiy xulq-atvorni, balki ilm olish va mehnatning ijtimoiy muhimligini ham ta’kidlaydi. Avloniy asarida turkiy xalqlarning qadriyatlarini o‘z zamonining ehtiyojlari asosida tahlil qilib, ularga ma’naviy rivojlanish uchun yangi yondashuvlarni taklif etadi. U nafaqat axloqni, balki ilmni ham jamiyatda keng targ‘ib qilishni istaydi. Shuningdek, asar orqali o‘quvchiga ilm olish va axloqni bir-biriga bog‘lab, har bir insonning o‘z axloqiy mas’uliyatini tushunishi kerakligini ko‘rsatadi.

“Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar, olmosdan bo‘lur o’tkur.
Fikrning oyinasi olursa zang.
Ruhi ravshan zamir o’lur benur”.

Ushbu she’r shundayadolatli mulohaza bildiradiki, insonning tarbiyasi va ruhi yuksakligi uning fikrini nafaqat o’tkir, balki betakror qiladi. Tarbiya yo‘lida shakllangan sog‘lom fikr – xanjar yoki olmos kabi keskin va qimmatbaho bo‘lib, tarbiyalarsiz esa uning tajovuzkor va sust holga kelishi mumkin. Shuningdek, she’r tilining nozikligi, obrazlar va uyg‘unlik orqali Avloniyning axloqiy ta’limotlariga singdirilgan ustuvor qadriyatlarni ifodalaydi:

Fikrning tarbiyasi: Axloqiy tarbiya va ilm-fanning uyg‘unligi inson ongingin chuqurligini oshiradi.²

Ruhi yuksaklik: Fikrni tarbiyalash orqali inson o‘z zamonasiga mos keluvchi, ijtimoiy va ma’naviy fazilatlarni rivojlantiradi.

Adabiy ifoda: Til va uslubning mohirona tanlovi nafaqat ma'noni chuqurlashtiradi, balki o'quvchiga estetik zavq bag'ishlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Avloniyning "Turkiy Guliston yoki Axloq" asarini o'rganish orqali, uning axloqiy qadriyatlar va ilm-fan orasidagi o'zaro bog'liqlikni qanday ifodalaganini ko'rish mumkin. Asar orqali Avloniy nafaqat ilm olishni, balki axloqiy fazilatlarni rivojlantirishni ham o'rgatadi. U, shuningdek, ilmfan va mehnatning jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatni anglash va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rnini ko'rsatadi. Asar, yoshlarni ma'naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalashga chaqiradi, shuningdek, ular o'z jamiyatida o'z o'rnini qanday topishi kerakligini tushuntiradi.

Avloniy, ilm va axloqning bir-biriga ta'sirini ko'rsatar ekan, jamiyatdagi ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun har bir insonning axloqiy mas'uliyatini anglashiga urg'u beradi. Shuningdek, asar jamiyatda tenglik va adolatni ta'minlashda har bir kishining o'z vazifasini qanday bajarishi kerakligini yoritadi. Uning axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishdagi yondashuvi, hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Asarda Avloniy insonning axloqiy qarashlarini faqat tashqi xulqatvor bilan chegaralanmasligini, balki uning ichki ruhiy holati va aqlli idrok orqali o'lchanadigan fazilatlarini ham hisobga olish kerakligini ta'kidlaydi. U shunday deydi: "Ammo nafsning surati ko'zga ko'rinxayduran, aql ila o'lchanadurgan bir narsadurki, buni xulq deb atalur". Bu ibora insonning ichki fazilatlari va ruhiy dunyosining axloqiy o'lchovda qanday namoyonbo'lishini yanada chuqurroq yoritadi va o'quvchiga axloqiy xulq-atvorning faqat tashqi holatda emas, balki ichki ruhiy darajada ham o'lchanishini tushuntiradi. Axloq insonning yaxshi fazilatlarga undaydigan, yomonliklardan qaytaruvchi ilm ekanligini ta'kidlaydi. Umuman olganda axloq har bir inonning insoniylik xususiyatini ifodalovchi tushunchadir, axloqsiz inson mavjud bo'lmaydi. Faqatgina uning xususiyatlari har kimda har xil akslanadi. Biror shaxsga nisbatan „axloqsiz“ deya nisbat berishimiz mantiqsizlikdir. Axloqni tushunish va unga ta'rif berishda haligacha turli qarashlar, o'zaro tortishuvlar mavjud. Ammo asosiy masala axloqning o'rganish obyekti. Uni shakllantirish aynan Abdulla Avloniy izohlaganidek, o'ziga xos ilmdir. Axloqning negzida xulq turadi. Xulq yakka bir insonga tegishli bo'lgan jihatlardan biri. Xulq go'daklikdan tarbiyalanishi lozim. Unga qanday ishlov berilsa, u shunday natija ko'rsatadi. Bu borada muallif Payg'ambarimiz Muhammad(s.a.v) ning so'zlarini keltiradi: „Bir tog'ning o'rnidan ko'chib ketganini eshitsangiz, ishoningiz, ammo bir odamning xulqi boshqa bo'ldi deb eshitsangiz ishonmangiz“. Demakki, yaxshini yomondan, halolni xaromdan ajratmoqlikni kichiklik paytidan uqtirib borilishi talab etiladi. Shu jihatga ko'ra, axloq ulamolari xulqqa yaxshi xulq va yomon xulq kabi nisbat bergenlar. Muallif so'zlariga ko'ra, agar nafs tarbiya topib, yaxshi amallarga odat qilsa, „yaxshi xulq“, agar nafs tarbiyalanmay, yomon ishlarga odat qilsa, u „yomon xulqdir“. Bu so'zlarni o'qib hamma ishlatadigan odatdagi so'zlar

deguvchilar ham bo'lishi mumkin. Lekin mana shu keltirilgan fikrlarni anglab, uning amaliyotini o'zida jam qila bilish asosiy massala. Shuning uchun ham asarda Alloh taolo har bir insonga asl xilqatiga qobiliyat va iste'dodli, yaxshini yomondan ajrata olish in'om qilingan. Ammo bularni yuzaga chiqarib, kamolga yetkazish uchun tarbiya kerak bo'ladi. Tarbiyani Abdulla Avloniy „pedagogika“ bola tarbiyasining fani deb baholagan. Tarbiya insondagi axloqning qanday mezonlarga xizmat qilishini belgilovchi vositadir. U katta bir mas'uliyat talab etadi. Go'daklik chog'idan tarbiyani ijobiy xususiyatlarini berib borsa, undagi xulq go'zal bo'ladi. Otaonalarning o'zidagi mavjud xulqi bolaning ham shakllanayotgan xulqi va axloqiga asosiy ta'sir etadigan omil hisoblanadi. Shu bois xalqimizda shunday maqol bor: „Qush uyida ko'rganini qiladi“. Tarbiya axloqiy xususiyatlarini go'zallashtiruvchi kuchdir. Xuddi dori-darmon kabi insonga darmondir. Muallif shuning uchun ham tarbiyachilarni tabib deb ataydi. Shuningdek, inson tug'ilganidan qanday bo'lsa, shunday xulq va axloqliy bo'ladi, bu o'zgarmaydi deyilgan gapni inkor etadi. Chunki har qanday inson tug'ilgach, u tarbiya topadi. Ya'ni insonni ma'lum shaxs tarbiyalashi majbur deyilmaydi, uni jamiyat, tashqi muhitning o'zi ham tarbiyalab qo'yadi. Bundan tashqari, tarbiyaning dastlabki ildizi bu oiladir, insonning yashashni boshlagan uyi.

Avloniy tarbiya vaqtি haqida so'z yuritar ekan, o'sha davrdagi jamiyatda kuzatilayotgan noqisliklarni, ilmsizliklarni keltirib o'tadi. Bola tarbiyasida ota-onas, muallimlar va uni o'rabi turgan atrof-muhit o'z aksini ko'rsatadi. Ammo bu davrda bularning hech biri qoniqarli holda emas va maishiy turmushdan ajralib, ilm yo'lini tutmagan. Tarbiya qilishlik ham alohida ilmsir. Uni ikki turda: badan tarbiyasi va fikr tarbiyasi kabi qismga ajratiladi. Ikkisi ham bir biriga uzviy bog'langan. „O'zida yo'q narsani qanday bolaga bersin“, deya dard bilan aytilgan jumlalar vaziyat qanchalik jiddiy ekanligini ifodalaydi. Shu sababdan ota-onas ilm yo'lini tutmas ekan, tarbiyaning vazifasini bajara olmaydi. Keyingi navbatda fatonat tushunchasi beriladi. Bu aql egasi bo'lishlik. Aql sohiblari e'tiqodda ham ilg'ordir. Aql insonning ruhiga yo'lboshchilik qiladi. Muallif yaxshi xulqlarga to'xtalar ekan, bir orada aqsom ilmi haqida keltirib o'tadi. Ta'kidlanishicha, bu diniy va dunyoviy ilmlarni teng tutmoqlikdir. Avloniy bejizga keltirib o'tmagan. Chunki hamma davrda bu masala dolzarbdir. Ham diniy ham dunyoviy ilmlarni o'rganish va ikkisi tarozining pallasi kabi zarur ekanligini tushunish har qanday jamiyatdagi oliy maqsaddir.

Avloniy yoshlarni ilm-fan, axloq va ma'naviyatni birlashtirgan holda tarbiyalash orqali ularni milliy va global miqyosda yetuk shaxslar bo'lishiga turki beradi. Avloniyning "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi" kabi fikrlari ham yuksak ahamiyatga ega.

Avloniy asarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, millatni rivojlantirish va yosh avlodni ma'rifat ruhida tarbiyalashni o'zining bosh vazifasi sifatida qo'ygan. U jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy buzuqliklar, bilimsizlik va jaholatni tanqid

qilgan. Asar axloqiy tarbiya va inson fazilatlari haqida turli mavzularni o‘z ichiga olgan.

Avloniy yaxshi va yomon xulq-atvorni qiyoslab, yaxshi xulqning jamiyat va shaxs rivojidagi o‘rnini ko‘rsatgan. Muallif o‘z fikrlarini masallar, hikmatli so‘zlar va iboralar orqali ifodalagan. Avloniy asar orqali xalqni o‘zligini anglashga, ma’naviy kamolot sari intilishga va bilimsizlikni yo‘qotishga chorlagan. U ilm olishning inson hayotidagi ahamiyatini urg‘ulagan.

Asar ma’rifatchilik ruhida yozilib, unda G‘arb va Sharq mutafakkirlarining qarashlari uyg‘unlashgan. Bu bilan Avloniy o‘z davrining ilg‘or pedagogik va axloqiy qarashlarini yoyishga harakat qilgan. “Turkiy guliston yoxud axloq” qismлага bo‘lingan bo‘lib, har bir qism ma’lum bir axloqiy mavzuni yoritadi. Unda axloq, odobaxloq qoidalari, ilm, tarbiya va milliy qadriyatlar asosiy o‘rin tutadi. Avloniy asarni oddiy va tushunarli tilda yozgan.

Shu sababli u nafaqat ziyorilar, balki oddiy xalq vakillari orasida ham tushunilgan. Uning fikrlari hayotiy va dalillarga asoslangan. “Turkiy guliston yoxud axloq” Turkistonda axloqiy va pedagogik qo‘llanma sifatida xizmat qilgan. U o‘sha davr mакtablarida ham darslik sifatida qo‘llanilgan. Asar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Undagi axloqiy tamoyillar yosh avlodni tarbiyalashda va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Avloniy iqtisodni alohida ta’kidlaydi. Sababi insonning har bir faoliyati iqtisod bilan bog‘liq. Iqtisod deyilganda faqatgina mol, davlat, ya’ni moddiyat tushunilmaydi. Iqtisod aqlii insonlarning ishidir. Har narsada iqtisod kerak. Agar bunga e’tibor berilmasa, hatto yuksak madaniyat va sivilizatsiyalar tanazzulga uchraydi. Avloniy o‘z davrining mavjud holatini tushunib, anglagan holda kelgusi davrlarda iqtisodga amal qilmaydigan millat, davlat yutqazishini ta’kidlaydi.

Meni yana e’tiborimni tortgan qism hifzi lison tushunchasidir. Bunga ko‘ra, har bir millat vakili o‘z ona tilini asrab, uni saqlashi tushuniladi. Har qanday millatning mavjudligi, uning qudrat belgisi sifatida tan olingen tushuncha bu tili va adabiyotidir. Avloniy bejizga jon kuydirib hifzi lison haqida eslatib o‘tmaydi. O‘sha davr uchun dolzarb bo‘lgan millat sifatida birlashish va bu millatning tilini kelgusi avlodga yetkazish masalalari bugungi kunda ham ahamiyatlidir. „...O‘z yerinda ishlatmak va so‘zlamak lozimdir. Zig‘ir yog‘i solub moshkichiri kabi qilub, aralashquralash qilmak tilning ruhini buzadur...” Bundan tashqari, inson dilidagi so‘zlarini tili bilan bayon etar ekan, aql bilan ish yuritishi kerak ekanligini ta’kidlaydi. Chunki odamzodning ilmi, dunyoqarashi, aql-zakovati uning aytgan so‘zlaridan ma’lum bo‘ladi. Keyingi navbatda yomon xulq qanday tushunchalar bilan ifodalanishini ko‘rishimiz mumkun. Avloniy yomon xulqlar haqida bahs etar ekan, g‘azabga to‘xtaladi. G‘azab har bir insonning ichki ruhiyatidagi mavjud kuchdir. Uning nazorati aql bilan bo‘lishi kerak. Asarda Aflatunning fikri keltiriladi: „Hayajon ila paydo bo‘lgan bir hol, albatta, pushay-monlik ila tamom

bo'lur. G'azab g'azab qilinuvchidan ko'proq g'azab qiluvchig'a zarar qilur. Aqlni g'azabga soluvchi inson nafsin haroratlari o'tga yoqmish o'lur. Nadomatdan avval matonatni ixtiyor qiluvchilar hech bir tahlika va azobga duchor o'lmaslar". G'azab dastlab hissiyotimizda akslangan qiziqqon bir kuch, agar u matonat bilan bostirilmasa, so'nggida pushaymonlik bilan yakun topadi.

Jaholat haqida so'z yuritilar ekan, bu tushunchani insoniyat uchun tanazzul keltiruvchi asosiy omil deb ayta olamiz. Jaholat deganda keng ma'noda tushunish kerak. Uning ko'lami juda katta, ta'siri ham shunga yarasha. Jaholatni Abdulla Avloniy bir so'z bilan yomon xulqlarning boshlig'dir deb ataydi. Xulqimizdagi barcha illarlarning kelib chiqish sababi aynan jaholatga borib taqaladi. Asarda ta'kidlanishicha, jaholat ilmsiz, hech bir ishni farqiga bora olmaydigan nodonlikdir. Jaholatga botgan johil ahli hech yerda izzat va hurmat topmas ekan. Ularning biror masalani mushohada etishga aql va farosatlari yetmaydi. Chunki jaholatda aql va ilm yo'qdir. Shu boisdan ham nodon do'stdan ziyrak dushman afzaldir.

Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yuxud axloq asarida quyidagi iqtiboslar keltirib o'tilgan:

"Insonlarni yaxshilikg'a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshilagini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur.

Inson ikki narsadan murakkabdur. Biri jasad, ikkinchisi nafsdur. Jasad ko'z ila bor narsalarni ko'rur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondan, oqni qoradan ayirur.

Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo'lmishlar Agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikg'a tavsif bo'lub, «yaxshi xulq» agar tarbiyatsiz o'sub, yomon ishlaydurgan bo'lub ketsa, yomonliqg'a tavsif bo'lub «yomon xulq» deb atalur.

Tarbiya – «Pedagogiya», ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur.

Emdi ochiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ulgan kundan boshlamak, vujudimizi quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go'zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? Degan savol keladur. Bu savolga, «birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinci, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur», – deb javob bersak, bir kishi deyurki, «qaysi onalarini aytursiz, bilimsiz, boshi paqmoq, qo'li to'qmoq onalarmi? O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar», der. Mana, bu so'z kishining yuragini ezar, bag'ini yondurar. Otasiga nima dersiz, desak, qaysi ota? To'ychi, uloqchi, bazmchi, do'mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko'zlar qiyagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o'zlarini o'qitmak, tarbiya qilmak lozimdir», – der. Mana bu so'zni eshitgach, umid qo'llari qo'l tuqg'a urilur.

Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur.

Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur.

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratli bo‘lishiga sabab bo‘ladur.

Axloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidur.

Yaxshi xulq: bir qismi o‘z nafsimizga, bir qismini bir-birimizga qarshu ishlatmak uchun kerakli bo‘lgan yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g‘ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afvdur.

Fatonat aql egasi bo‘luv demakdir.

Nazofat deb a’zolarimizni, kiyimlarimizni, asboblarimizni pok va toza tutmoqni aytilur. Poklik zehn va idrokingni keng va o‘tkur qilur.

Sa’y va g‘ayrat deb ustiga yuklangan ibodat va xizmatlarni harakat birla ado qilmakni aytilur.

Riyozat deb savob ishlarni qilub, gunoh ishlardan saqlanmoqni aytilur. Riyozat adabning koni, ruhning darmonidur. Insonlarni to‘g‘ri yo‘lga solub, egr yo‘ldan qaytarguvchi riyozatdurdur.

Shijoat deb botir va yurakli bo‘lmakni aytilur. Shaji’ kishi hech narsadan qo‘rqmaydurgan botir va yurakli bo‘lur.

Qanoat deb janobi Haq tarafidan ihson bo‘lgan ahvolga yetishdig‘imiz ne’mat va molga shukr, boshimizga kelgan faqr, musibat, falokatlarga chidab, sabr qilmoqni aytilur. Qanoat hasad, tama, hirs, xorlik kabi illatlarning davosi, nafsimizning g‘inosidur.

Ilm deb o‘qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliv va muqaddas bir fazilatdurdur.

Sabr deb boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo‘lmakni aytilur. Har bir ishda sabr va sovuqqonlik ila harakat qilmak lozimdur.

Hilm deb bo‘lar-bo‘lmas ishga achchig‘lanmaydurgan, arslon yurakli, yumshoq tabiatli bo‘lmoqni aytilur. Hilm insonlarning tab‘idan xusumat, adovat, g‘azab, hiddat kabi yomon xulqlarni yo‘q qiladurgan har kimcha maqbul bir sifatdurdur.

Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o‘z vaqtida tartibi ila qilmakni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo‘lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar.

Miqyosi nafs deb qiladurgan amallarimizni, ishlarimizni shariat, insoniyat qonuniga muvofiq o‘lub, o‘lmaydig‘ini vijdonimiz ila o‘lchab ko‘rmakni aytilur.

Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladurgan hissiyat, ya'ni sezuv – tuymaqdan iborat ma'naviy quvvatni aytilar.

Vatan. Har bir kishining tug‘ulub o'skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ulgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan – uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx bo'lub, har vaqt dilining bir go‘ shasida o'z vatanining muhabbat turar.

Haqqoniyat deb ishda to‘g‘rilik, so‘zda rostlikni aytilar. Inson bo‘stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo‘li ila chiqar.

Nazari ibrat deb har bir narsaga sinchiklab boqub, shundan o‘ziga bir hissa ibrat olmoqni aytilar.

Iffat deb nafsimizni gunoh va buzuq ishlardan saqlamoqni aytilar. Bizlarni gunoh va ma’siyatdan saqlaguvchi, harom-harishdan nafsimizni asraguvuvchi faqat iffatimizdur

Hayo deb ishda, so‘zda adabni riosa qilmakni aytilar. Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdurki, inson har vaqt shul ma'naviy nuring ziyosiga muhtojdur.

Idrok va zako deb ochuq fikrli, xushtabiat, ziyrak bo‘lmakni aytilar. Idrok va zako yaxshi xulqlarning ravzayi rizvoni, ibrat ko‘zlarining nuri rahmoniysidur.

Hifzi lison deb har bir millat o‘z ona til va adabiyotini saqlamagini aytilar.

Iqtisod deb pul va mol kabi ne’matlarning qadrini bilmakni aytilar.

Viqor deb kibr va g‘ururdan, manmanlikdan o‘z nafssini saqlamakni aytilar. Viqor shar’ va hikmat yuzasidan inson uchun eng kerakli yaxshi xulqlarning biridur. Viqorsiz odam e’tiborsiz boyga, kibrli kishi illatli faqirga o‘xshaydur.

Xavf va rajo deb qo‘rqmoq va umidvor bo‘lmoqni aytilar. Banda har ishda janobi Haqdan qo‘rqmoq ila barobar umidini ham uzmaslik lozimdir.

Itoat deb bo‘yinsunmakni aytilar. Alloh taolonning amriga boyinsunu, ibodat va itoat qilmak farzi ayndur.

Haqshunoslik deb bir kishining qilgan yaxshiligin unutmaslikni aytilar. Butun olamdag'i insonlar haqshunoslik va do‘stlik orqasida yasharlar.

Xayrixohlik deb nima ila bo‘lsa bo‘lsun bir-birimizga foyda yetkurmakni aytilar. Xayrixohlik birbirimizga qarshu ishla-tiladurgan bir vazifayi insoniyadurki, kishi o‘z nafsiya loyiq ko‘rmagan bir ishni boshqa bir musulmon qarindoshiga munosib ko‘rmasdan egri yo‘llardan, yomon ishlardan kuch yetganicha qaytarmak va yordam qilmak lozimdir.

Munislik deb har kim o‘z tengi, maslakdoshini topub, ulfat bo‘lmakni aytilar. Dunyoning lazzati sodiq do‘stlar ila suhbat qilmakdan iboratdir.

Sadoqat deb kishi o‘z vazifasini to‘g‘rilik ila ishlamakni aytilar. Sodiq kishi din va millatiga, vatan va davlatiga to‘g‘rilik ila xizmat qilub, obro‘ va mukofotlar olur. Sadoqat gulshani salomat, bo‘stoni najotdur. Sadafdan inju, ilondan zahar hosil bo‘ldug‘i kabi rostlikdan foyda, xiyonatdan zarar hosil bo‘lur.

Adolat deb boshqalarning mol va nomusini riosa qilmakni aytilar.

Muhabbat deb bir narsani suymakni aytilar. Dunyodagi insonlar mehr va muhabbat soyasida yasharlar. Har bir ishni muhabbat orqasida ishlarlar.

Muhabbatsiz kishi hech bir ishni ishlamakka g‘ayrat va jasorat qilolmas, dunyo ne‘matidan lazzat ololmas.

Olyihimmat deb din va millatga foydali ishlarni mol va jon ila ishlamakni aytilar.

Afv deb kechurmakni aytilar. Bir kishi qilgan kamchiliklarini bo‘yniga olub, o‘kunub, kechurmakni so‘rasa, afv qilmak lozimdur.

Insonlarni saodati abadiyadan mahrum qiladurgan, janobi Haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jovidonimiz uchun masnum bo‘lgan axloqi zamimalar: g‘azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, rahovat, anoniyat, adovat, namimat, g‘iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, tama, zulmdur. Bu sanagan yomon xulqlarning fanoliqlarini, yuqorida sanagan yaxshi xulqlarning go‘zalligini insof muvozanasi ila o‘lchab, vijdon muhokamasi ila tahqiqlab, yaxshilarini tinglab amal qilmak, yomonlarini anglab, hazar qilmak lozimdur.

G‘azab deb bir kishi ikkinchi ila shiddat va hiddat ila muomala qilishmakni aytilar.

Shahvat nafsning taayyishindan, taaddisindan hosil bo‘ladurgan bir quvvatduri.

Jaholat deb o‘qimagan, bilimsiz hech narsaga tushunmay-durgan nodonlig‘ni aytilar. Jaholat insoniyatning eng zo‘r dushmani va yomon xulqlarning boshlig‘idur.

Safohat deb buzuq va g‘ayri mashru’ yerkarda sarfi umru mol qilmakni aytilar.

Hamoqat aql va ma‘rifatning kamlig‘indan hosil bo‘ladurgan eng yomon xulqlarning biridur. Hamoqatning ma’niyi lug‘aviysi balohatga yaqin o‘ldig‘indan ba‘zi hukamo ahmoqlarni jahli murakkab ashobindandur, demishlar.

Atolat deb dangasa va yalqovlikni aytilar. Atolat insonning saodatligining zo‘r ofatidur.

Xasosat deb tama’ va zillatni bo‘yniga yuklab, ortuqcha hirsini dunyoga qo‘ymakni aytilar. Hirs va tama’ga ifrot darajada yuz tuban ketgan baxil, qancha sha’nu sharaf sohibi bo‘lsa ham, nafsining yoqasini faqirona bir mazallatdan va xorliqdan qutqarolmas.

Raxovat deb tanparvarlik, g‘ayratsizlikni aytilar. Umid va sa‘yning eng zo‘r dushmani raxovatdurki, hissiyoti g‘ayrat-parvaronamizni mahv va barbod etar va bir necha ma‘yusona fikr va xayollarga duchor va giriftor etar.

Anoniyyat deb xudbin, mutakkabir, manmanlikni aytilar. Manmahlik johilona kibru g‘ururdan paydo bo‘ladurgan eng yomon xulqlarning biridurki, kishini har yerda ma‘yus va mahjub qilur.

Adovat deb birovga xusumat va dushmanlik qilmakni aytilar. Adovat vijdonni behuzur qiladurgon eng yomon xulqlardan o‘ldig‘ini inson yaxshi bilsa edi, hech vaqt aziz jonini alamlik azobga giriftor qilmas edi.

Namimat deb so‘z yurutmak, chaqimchilikni aytilar. Nammomlik fasodi axloqdan tug‘uladurgan yomon xulqlarning biridur.

G‘iybat deb bir kishining kamchilik va qusurini orqasidan so‘ylamakni aytilar. G‘iybat so‘ylamak harom o‘ldig‘i kabi eshitmak ham haromdur.

Haqorat deb bir kishining haffsiga, iffatiga tegadurgan so‘zlar ila qadr va e’tiborini tushurmak niyatida yomon muomala qilmakni aytilur.

Jibonat deb qo‘rroq va yuraksizlikni aytilur. Qo‘rroq kishilar vahm va xayolot asiri bo‘lub, bir ishni ishlamakg‘a jasorat qilolmaslar.

Hasad deb bir odamga janobi Haq tarafindan berilgan he’mat va davlatning zavolini tilamakni aytilur. G‘iybat, bo‘hton, su’izan kabi yomon xulqlar hasaddan tug‘ilur. Hasad axloqi zamimalarning eng zararligidur.

Kizb deb yolg‘on so‘zni aytilur. Yolg‘onchi kishilarni kazzob deyilur.

Nifoq deb kishining oldida bir xil, orqasidan boshqa xil so‘zlanadurgan so‘zni aytilur. Munday so‘zlarni so‘zlovchi ikki yuzlama kishilarni munofiq deyilur.

Tama deb birovdan bir narsa umidvor bo‘lmakni aytilur. A’zo va favorihlari salomat, kuch va quvvatli kishilarga tama qilmak harom, ojiz va notavon, kuchsiz kishilarga mubohdur. Zulm deb birovning joniga yoki moliga zarar yetkurmakni aytilur.

XULOSA

Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari o‘zbek ma’rifatchilik adabiyoti va axloqshunoslik sohasida o‘chmas iz qoldirgan nodir asarlardan biridir. Ushbu asar nafaqat axloqiy tarbiyaning nazariy asoslarini yoritadi. Balki jamiyatni ma’naviy jihatdan yuksaltirishga qaratilgan amaliy ko‘rsatmalarni ham beradi. Maqola davomida asarning g‘oyaviy mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati va Avloniyning milliy qadriyatlarni asrab-avaylash borasidagi xizmatlari atroflicha tahlil qilindi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, “Turkiy Guliston” bugungi kunda ham yosh avlodni ma’naviyatli, axloqli va vatanparvar shaxslar qilib tarbiyalashda bebaho qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Asarning dolzarbliji va undagi fikrlarning zamonaviy jamiyat uchun ahamiyati hali-hanuz yuqori bo‘lib qolmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Toshkent «Ma’naviyat», 2009. 10-b.
2. Jadidlar. Abdulla Avloniy [Matn]: risola./Olim Oltinbek. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. –156 b.
3. Turkiy guliston yoxud axloq [Matn] /A.Avloniy/ -Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. –96 6.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. – 96b. 5-15-betlar.
5. Jadicchilik harakati tarixi va ta’siri. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2015.
6. Odob-axloq kitobi / Jadic adabiyoti namoyandalari: M. Behbudiy va boshq. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2020. – 192 b. (62-bet)
7. O. Hasanboyeva, J. Hasanboyeva, H. Hamidov. Pedagogika tarixi. – Toshkent: G‘. G‘ulom Nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. – 312 b. (82, 118, 213-betlar)
8. Q. Karimov. Abdulla Avloniy hayoti va ijodi. – Toshkent: Fan, 1986.

8. S. Qosimova. Milliy taraqqiyot va ma'naviyat: Abdulla Avloniy asarlari asosida. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
9. N. Jo'rayev. O'zbek ma'rifatparvarlari merosi. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.
10. Пўлатова, Д. А. (2024). ГЛОБАЛ ТАҲДИДЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА ИСЛОМ ФАЛСАФАСИ АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 457-466.
11. Akmalovna, P. D. (2024). FEATURES OF THE CONCEPT OF MORAL IMPROVEMENT OF PERSONALITY OF CENTRAL ASIA THINKERS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT*, 3(2), 244-251.
12. Po'Latova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFASI AXLOQIY QADRIYATLARI TIZIMIDA ADOLAT TUSHUNCHASIGA ANALITIK YONDOSHUVLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(1), 354-360.
13. Pulatova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFIY AN'ANALARIDAGI AXLOQIY QADRIYATLARINING TARIXIY TAHLILI. *International scientific journal of Biruni*, 4(1), 72-79.
14. Ma'rifat yo'lida: Abdulla Avloniy tavalludining 140 yilligiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar To'plami. – Toshkent: Fan, 2018.
15. Uralov, D., & Shodmonova, L. (2024). IBN SINONING INSON VA MA'NAVIY KAMOLOT MASALASIGA MUNOSABATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 334-338.
16. Uralov, D. (2024). JAMIYAT XAVFSIZLIGI VA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOG 'LOM MAFKURALARNING ROLI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. *International scientific journal of Biruni*, 3(1), 222-228.
17. Uralov, D. (2021). TALABA-YOSHLAR ONGIDA MA'NAVIY BO'SHLIQNI TO 'LDIRISHDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 962-966.
18. G'. G'aniyev. Avloniy asarlarida axloq va tarbiya masalalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti,